

to'g'risida"gi qonuniga yangi modda, ya'ni "Murojaatlarning kriminologik monitoringi va preventiv ta'siri" moddasi kiritish davlat organlariga mavjud murojaatlarni tahlil qilib, ijtimoiy nizolarni aniqlash jarayonida ularni kuzatishi imkonini beradi;

ikkinchisi, raqamli texnologiyalardan foydalanib, "Murojaatlarning kriminogen xaritasi" tizimini joriy etish, bu avtomatlashtirilgan tahlillar olib borish, murojaatlarning yig'ilishi va markazlashgan joylarni aniqlash imkonini beradi;

uchinchisi, Kriminologik skrining tizimini joriy etish. Murojaatlar bazasini sun'iy intellekt orqali tahlil qilish, har bir mahallaning xavflilik darajasini aniqlash va fuqarolarni ogohlantirish sistemasini yo'lga qo'yish;

to'rtinchisi, qayta aloqa profilaktikasini, ya'ni murojaat qilgan shaxslar bilan aloqa o'rnatgan holda, muammolari yechilgani haqida xabar berish mexanizmlarini joriy etish;

beshinchidan, jinoyatchilikni prognoz qilish metodikasini yaratish, ya'ni IIO xodimlari uchun murojaatlar mazmuniga asoslangan metodika ishlab chiqish, bu jinoyatchilikning barvaqt oldini olishda samaradorlikni ta'minlaydi;

oltinchidan, davlat organlari o'rtasida integratsiya kuchaytirish. Davlat idoralari va tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro integratsiyani kuchaytirish va

boshqaruv samaradorligini oshirishda tizimlashtirilgan (jadval ko'rinishidagi) ma'lumotlar almashinuvi markaziy o'rin tutadi. Axborot tizimlarini muvofiqlashtirish orqali idoralararo kommunikatsiyani yangi bosqichga olib chiqish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, fuqarolarning murojaatlari instituti shunchaki ijtimoiy muloqot vositasi emas, balki kriminogen vaziyatni barvaqt prognoz qilish va profilaktika tizimini maqbullashtirishning eng samarali huquqiy mexanizmidir. Tadqiqot jarayonida murojaatlar tahlili orqali jinoyatchilikka qarshi kurashishning institutsional va protsessual asoslari tizimli o'rganildi. Aniqlanishicha, davlat organlariga kelib tushayotgan ariza va shikoyatlarni raqamli texnologiyalar hamda jadvashtirilgan ma'lumotlar bazasi (Big Data) yordamida qayta ishlash idoralararo hamkorlik samaradorligini tubdan oshiradi. Bu esa yashirin (latent) huquqbuzarliklarni aniqlash, xotinqizlarga nisbatan tazyiqlarning oldini olish va ijtimoiy-maishiy nizolarni barvaqt bartaraf etish imkonini beradi. Bir so'z bilan aytganda, sohaga oid qonunchilik bazasini takomillashtirish va murojaatlar bilan ishlashda tizimli monitoringni yo'lga qo'yish mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlash va kriminologik xavfsizlikni mustahkamlashning ustuvor omili bo'lib xizmat qiladi.

KORRUPSIYAVIY JINOYAT SODIR ETGAN ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMI SHAXSINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI



DAVRANOV
Xusniddin Baxranovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
ilmiy xodim-tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada Korruptsiyaviy jinoyat sodir etgan ichki ishlar organlari xodimi shaxsining kriminologik jihatlarini kompleks tarzda tahlil qilingan. Xususan, korruptsiyaviy xulq-atvorning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, institutsional, ma'naviy-axloqiy hamda tashkiliy-boshqaruv omillari ochib berilgan. Ichki ishlar organlari xodimlarning huquqiy madaniyati va kasbiy deformatsiyasi bilan bog'liq muammolarning korruptsiyaga ta'siri ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, xorijiy va milliy olimlarning jinoyatchi shaxsining kriminologik haqidagi nazariy qarashlari tahlil qilinib, ular asosida mualliflik yondashuvlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, xodimlar, jinoyatchi shaxs, kriminologik tavsif, korruptsiya, mansab vakolatini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, huquqiy madaniyat, kriminologik omillar, korruptsiyani oldini olish.

Аннотация. В статье анализируются криминологические особенности личности сотрудника органов внутренних дел, совершившего коррупционное преступление. Рассматриваются социально-экономические, правовые, институциональные и нравственно-психологические факторы коррупционного поведения, а также влияние правовой культуры и профессиональной деформации на его формирование. На основе анализа научных подходов зарубежных и отечественных исследователей представлены авторские взгляды на криминологическую характеристику коррупционного преступника из числа сотрудников органов внутренних дел.

Ключевые слова: органы внутренних дел, коррупция, личность преступника, коррупционное поведение, факторы коррупции, злоупотребление служебным положением, взяточничество, правовая культура, профессиональная деформация, предупреждение коррупции.

Abstract. This article comprehensively analyzes the criminological aspects of the criminal personality of an employee of the internal affairs bodies who committed a corruption crime. In particular, the socio-economic, legal, institutional, spiritual-moral and organizational-managerial factors of corrupt behavior are revealed. The impact of problems related to the legal culture and professional deformation of employees of the internal affairs bodies on corruption is scientifically substantiated. Also, the theoretical views of foreign and national scientists on the criminological personality of the criminal are analyzed, and the author's approaches are outlined on their basis.

Keywords: internal affairs bodies, employees, criminal, criminological description, corruption, corruption factors, abuse of official authority, bribery, legal culture, criminological factors, prevention of corruption.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar" [1; 2-b.], deb belgilangan. Bu mansabdor shaxslar zimmasiga mas'uliyat yuklaydi, albatta.

Korruptsiya hodisasi, avvalo, inson shaxsi bilan bog'liq. Korruptsiyaviy jinoyat sodir etgan shaxs – o'z mansab vakolatlaridan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalangan, qonun va ma'naviy mezonlarga zid ravishda harakat qilgan shaxs. Uning ushbu noqonuniy harakati orqali nafaqat davlat va jamiyat manfaatlariga putur yetadi, balki

Foydalanilgan manbalar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2016-yil 8-dekabr. №242-y.(6677)
2. Ismailov I., Tursunov A.S. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalarining hamkorligi. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017.
3. Ismailov I. Huquqbuzarliklar profilaktikasi: Darslik. — T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. — 320 b.
4. Axmedov B.R. Davlat boshqaruvida murojaatlar bilan ishlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. avtoref. — Toshkent: TDYUU, 2020.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — T.: "O'zbekiston", 2022.
6. Mirziyoyev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". 1-jild. — Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
7. Dadajonov, B. B. Ichki ishlar organlarida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash faoliyatini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoref. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2011. — 26 b.
8. Azizov X.T. Huquqbuzarliklar profilaktikasida ijtimoiy sheriklik. — Toshkent: Akademiya, 2021. — 118-120-b.
9. Ismoilov I., Fazilov I.Yu. Kriminologiya: Darslik. — Toshkent: IIV Akademiyasi, 2021. — 410-415-b.
10. Долгова А.И. Криминология: Учебник для вузов / Под общ. ред. проф. А.И. Долговой. — 4-е изд., перераб. и доп. — Москва: Норма: Инфра-М, 2019. — С. 284–288.

fuqarolarning davlat organlariga nisbatan ishonchi ham yo'qoladi.

Ichki ishlar organlari xodimlar davlat xizmatidagi shaxslardir. Bu tizimda xizmat olib borayotgan ayrim xodimlarning o'z xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilib, uni shaxsiy boylik orttirish vositasiga aylantirayotgani jiddiy xavotir uyg'otadi. Korruptsiyaviy jinoyat sodir etgan mansabdor shaxslar, odatda, o'z jinoyatlarini yashirish, javobgarlikdan qochish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun jamiyatdagi sust nazorat va tizimli zaifliklardan foydalanadilar.

Ma'lumki, jinoyatchi shaxsi kriminologiyaning markaziy obyekti. Jinoyatchi shaxsining o'ziga xos jihatlari bilmay turib, uning individual jinoiy xatti-harakatlarining sabablarini tushunish qiyin. Bu esa, jinoyatchilik va uning alohida turlari sodir etilishi sabablarini aniqlash imkonini bermaydi.

Fikrimizcha, korruptsiyaviy jinoyat sodir etgan ichki ishlar organlari xodimi shaxsining mohiyatini to'liq anglab yetish uchun mazkur muammoni o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim yo'nalish – umumnazariy asoslar va amaliy jihatlar nuqtai nazaridan kompleks tarzda o'rganish zarur. Jinoyatchi shaxsini umumnazariy jihatdan o'rganish bu muammo bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga g'ayriqonuniy xatti-harakatlarga moyil shaxslarni aniqlash, o'rganish, ularga ta'sir o'tkazish va noqonuniy xatti-harakatlarining oldini olish uchun tegishli choralar ko'rish imkonini beradi.

Kriminologiyaga oid adabiyotlarda jinoyatchi shaxsi deganda, jinoyat qonunini aybli ravishda buzayotgan shaxsni tavsiflovchi hamda boshqa shaxsiy sharoitlar va holatlar bilan hamohang tarzda, uning jinoiy xulqiga ta'sir etadigan ijtimoiy shartlangan xususiyatlar, belgilar, aloqalar va munosabatlar yig'indisi tushuniladi [2; 63-b.].

Kriminologiya nazariyasida jinoyatchi shaxsi yetarlicha chuqur o'rganilgan, bu haqda ko'plab fundamental tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ushbu ko'p qirrali muammoning ayrim jihatlari bo'yicha bahs-munozarali fikrlar hali ham uchraydi. Eng avvalo, bu jinoyatchi shaxsining o'ziga ta'rif berishga taalluqlidir. Kriminolog olimlarning ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyatchi shaxsi hozirgi kungacha turlicha talqin qilinmoqda.

So'nggi yillarda kriminologiyada "jinoyatchi shaxsi" tushunchasidan emas, balki "kriminogen shaxs" tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq, degan fikrlar paydo bo'ldi [3; 102-b.].

Bizning fikrimizcha, "jinoyatchi shaxsi" tushunchasi, shubhasiz, mavjud bo'lish huquqiga ega. Kriminologiya fani rivojlanishi tarixida jinoyat sodir etgan shaxsning xususiyatlarini bunday aniq va lo'nda ifodalaydigan boshqa tushuncha mavjud emas. Bizningcha, jinoyatchi shaxsiga doimo ikki jihatdan: individual va guruhviy yoki umumlashtirilgan darajada qarash lozim.

Birinchi daraja o'ziga xos bo'lgan salbiy xususiyat va sifatlar, qarashlar, ijtimoiy manfaatlarga munosabat va o'z niyatini amalga oshirish uchun ijtimoiy xavfli yo'lni tanlash yoki salbiy natijaning oldini olishda zarur faollikni namoyon etmaslik oqibatida jinoyat sodir etgan aniq shaxsni qamrab oladi.

Ikkinchi daraja esa jinoiy xulq-atvorni belgilaydigan o'ziga xos salbiy xususiyat va fazilatlarga ega bo'lgan barcha jinoyat sodir etgan shaxslar yig'indisini o'z ichiga oladi.

Jinoyatchi ichki ishlar organi xodimi shaxsini amaliy jihatdan o'rganish esa uning muayyan holatlardagi xatti-harakatlarini, jinoyat sodir etishga olib kelgan real omillarni, ijtimoiy muhit bilan bog'liq munosabatlarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Amaliy tahlil orqali jinoyatchi xodim shaxsning yoshi, jinsi, ta'lim darajasi, ish faoliyati, ijtimoiy muhiti, ruhiy holati kabi omillar asosida individual psixologik va ijtimoiy portreti shakllantiriladi.

Bundan tashqari, amaliy jihatda jinoyatchi shaxs bilan bevosita ish olib borish, ya'ni so'roq qilish, kuzatish, ekspert xulosalari orqali uning shaxsiy xususiyatlarini baholash, jinoyatga tayyorgarlik jarayonini aniqlash va uning kelajakda sodir etishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarini oldindan bashorat qilish imkonini beradi.

Amaliyotni o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyat sodir qilgan shaxslar aksariyat ko'pchiligining huquqiy ongi buzilganligi bilan tavsiflanadi. Ammo bu ular qonunlarni bilmaydi, degani emas, ko'pgina jinoyatchi xodimlar darajada huquqiy bilimiga ega, lekin huquqqa, qonun normalariga rioya qilib faoliyat ko'rsatish ehtiyoji shakllanmagan. Umuman, jinoyatchilarga ma'naviy tusdagi buzilish va xatolar xosdir.

Bu ma'naviy buzilish va xatolar ozgina darajadan to butun bir kompleks g'ayriijtimoiy qarashlar va xatti-harakatlarni shakllantirishi mumkin. Bunday g'ayriijtimoiy yo'nalish va xususiyatlar asosan jinoyatchi-retsivistlarga, qasdan jinoyat sodir qiladiganlarga xos bo'lib, ularning hayotiy ehtiyojini qondirish va vazifalarni bajarishda jinoiy jazolanadigan vositani, yo'lni tanlashni belgilab beradi [4].

Jinoyatchi shaxsining tuzilishiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u biofizilogik, ijtimoiy-demografik, ruhiy, ma'naviy maqomi, jinoiy-huquqiy va kriminologik belgilardan iborat. Shaxsning biofizilogik belgilari – uning irsiyati, sog'lig'ining darajasi, jismoniy tuzilishi va ruhiyatining tabiiy sifatleri va boshqalar.

Ijtimoiy-demografik belgilar esa shaxsning jinsi, yoshi, ma'lumoti, ijtimoiy kelib chiqishi va maqomi, shug'ullanayotgan ishi, millati va kasbi, oilaviy ahvoli, moddiy jihatdan ta'minlanganlik darajasi, shahar yoki qishloq aholisiga mansubligi va hokazolarni o'z ichiga oladi [5].

B.V. Voljenkin jinoyatchi shaxsining belgilarini uch bosqichli tasnifda taqdim etgan. Uning yondashuvida jamiyat a'zosi sifatidagi umumiylikdan tortib, jinoyatchi sifatida uning shaxsiy, individual xususiyatlarigacha bosqichma-bosqich chuqurlashib boradi. Bu model jinoyatchi shaxsini jamiyatdagi boshqa fuqarolardan ajratish va shu bilan birga, uning jinoiy xatti-harakatlarining sabablarini aniqlash uchun qulay nazariy asos yaratadi.

N.T. Vedernikova ikki asosiy yo'nalish – individual va ijtimoiy belgilariga e'tibor qaratgan. Bu yondashuv jinoyatchi shaxsining nafaqat shaxsiy hayoti, balki u yashab turgan ijtimoiy muhit bilan bog'liq omillar ham jinoiy xatti-harakatlarga ta'sir qilganini ko'rsatishda samarali bo'lishi mumkin. Bu fikrga qisman qo'shilish mumkin, chunki jinoyatchi shaxsga uning yashab turgan muhiti va atrofidagi shaxslarning xulq-atvori va shu kabi holatlarning ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Yu.D. Bluvshhteynning tasnifi esa keng qamrovli bo'lib, jinoyatchi shaxsini turli sohalar kesimida tahlil qilish imkonini beradi. U demografik, ijtimoiy, huquqiy, psixologik va biologik omillarni ajratib ko'rsatib, jinoyatchi shaxsiga ko'p qirrali yondashuvni ta'minlaydi. Bunday tahlil jinoyat psixologiyasi va kriminologiyada foydalanish uchun juda muhim manba bo'lishi mumkin.

Yana bir muhim jihat – jinoyatchi shaxsining qonunga itoatkor fuqaro shaxsidan nimasi bilan farq qilishini anglash. Bizning fikrimizcha, Ularni bir-biridan obyektiv ajratib turadigan yagona belgi – sodir etilgan jinoyat fakti bo'lib, u shaxsning ijtimoiy xavfliligini belgilaydi.

Aynan sodir etilgan jinoyat qonunbuzarning ongiga singib ketgan g'ayriijtimoiy qarashlar va e'tiqodlar natijasidir. Sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishsiz shaxs jinoyat qonuni uchun ahamiyat kasb etmaydi. Jinoyatning og'irligi, sodir etilgan jinoiy jazolanadigan qilmishlar soni uning boshqa jinoiy-huquqiy tavsiflari bilan bir qatorda, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini va shunga mos ravishda, eng muhimi, jinoyatchining o'zini tavsiflaydi.

Jinoyatchi shaxsini o'rganish amaliy ahamiyatga ham ega. Jinoyatchining faoliyat turi, u sodir etayotgan jinoyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ko'pgina jinoyatchilar o'zlarining kasbiy vazifalarini amalga oshirish sohasida jinoiy niyatlarini amalga oshiradilar, masalan, o'zlari ishlayotgan ishlab chiqarish sohasida talon-torajlik, o'g'rilik qilishadi yoki o'z kasbiy bilimlari, ko'nikmalari, xizmat vakolatlaridan, egallab turgan lavozimining obro'e'tiboridan jinoiy maqsadlarda foydalangan holda jinoyat sodir etadilar.

Jinoyatchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish, ularning jinoiy xatti-harakatlariga sabab bo'luvchi omillarni aniqlash va shakllanish davrida bartaraf etish bugungi kunda ko'plab olimlar tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotiga istiqbolli yondashuvlar sifatida qaralmoqda.

Jinoyat sodir etgan mansabdor shaxslarning shaxsini o'rganish nafaqat ular to'g'risidagi kriminologik bilimlarni to'ldirish, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlarni ushbu bilimlar bilan qurollantirish, ular asosida bunday jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ogohlantirish choralari amalga oshirish uchun zarur.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyat sodir etgan shaxslarning muhim ijtimoiy-demografik xususiyatlaridan biri – ularning ta'lim darajasi. Umuman olganda, qonunbuzarlar orasida past ta'lim darajasiga ega shaxslar ko'pchilikni tashkil etadi. Statistika va alohida tadqiqotlarda qayd etilganidek, mahkum etilgan xodimlar orasida ham ularning ulushi yuqori.

Jinoyatchi shaxsining axloqiy-ruhiy sifatleri, nazarimizda, ularni o'rganishda muhim omil hisob-

lanadi, chunki bu jinoiy xulq-atvorning sabablarini tushunish va g'ayriijtimoiy yo'nalganlik darajasini baholash imkonini beradi.

Kriminologik adabiyotlarda qayd etilishicha, jinoyatchi shaxsining ruhiy xususiyatlari boshqa shaxslarnikidan farq qiladi. Ko'pchilik jinoyatchilarga tajovuzkorlik, g'ayriijtimoiy xulq, turli darajadagi ruhiy og'ishlar (aqli rasolik darajasida) xos.

Jinoyatchilarni tiplarga ajratishda kriminologlar turli asoslarga, ya'ni ijtimoiy xavflilik va kriminogen "zararlanish" darajasiga, jinoiy mayl, psixologik mo'ljal mazmuni va motivatsion mezonlarga va turli vaziyatlarda jinoiy xulq-atvorning barqarorlik darajasiga ko'ra amalga oshirganlar [7; 105-b].

Hozirgi zamon psixologiya fani inson faoliyatiga turtki beruvchi asosiy omil motiv hisoblanishini qayd etadi. Qilmishning nima uchun sodir etilganligi aynan uning motivlarida aks etadi. Motivda ehtiyojlar o'zining aniq ifodasini topadi. Ehtiyojlar ularni qondirishga xizmat qiluvchi obyektlar doirasining o'zgarishi va kengayishi bilan birga o'zgaradi va boyib boradi. Motiv – shaxsning alohida sifatleri va mo'ljallari bilan bog'liq bo'lgan, lekin, ayni vaqtda, uning ijtimoiy psixologik jihatlari ham o'z ichiga oladigan subyektiv hodisa [8; 34-b.].

Jinoyat sodir etgan xodimlarning aksariyati o'z xizmat mavqeyidan ko'pincha nafaqat qarindoshlariga, balki bunday iltimos bilan murojaat qilgan do'stlari, tanishlari va notanish fuqarolarga, hatto qonunga zid bo'lsa ham, yordam ko'rsatish (*odatda, manfaatdorlik asosida*) uchun foydalanganliklarini ta'kidlaydilar, ya'ni ular o'z xizmat mavqeyidan g'arazli maqsadlarda foydalanganlar.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida mahkum xodimlarning qadriyat yo'nalishlarini o'rganish natijalari ularning moddiy ehtiyojlari va intilishlari ustunlik qilishini ko'rsatdi. So'rovda ishtirok etganlarning aksariyati o'z hayotlarining maqsadi yuqori moddiy farovonlikka erishish ekanligini ta'kidladilar. Bu yuqori maosh olish, uy va avtomobil sotib olishga intilishda namoyon bo'lmoqda. Ularning fikricha, bu maqsadlarga faqat jinoyat qonunini buzish orqali erishish mumkin.

Jinoyatchi shaxsini o'rganish asnosida, mansab vakolatini suiiste'mol qiluvchi shaxslar o'zlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ko'ra, aksariyat hollarda, qonunga itoatkor fuqarolardan farq qilmaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

Ma'lumki, "mansabdorlik jinoyatlari" tushunchasi jinoyat huquqi nazariyasida bu jinoyatlar belgilarining birgalikda ifodalanishi bilan ta'riflanadi. Mazkur belgilar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 205-moddasi 1-qismida berilgan bo'lib, unda hokimiyatni yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lish, deb ta'riflangan.

Mansabdorlik jinoyatlariga berilgan bu ta'rif o'ziga xos aniq va atroflicha bo'lib, o'zida bu jinoyatlarning barcha asosiy belgilarini mujassamlashtiradi. Va bu belgilar bilan boshqa o'xshash huquqbuzarliklardan farqlash imkoniyatlarini yaratadi. Bu ta'rif mansabdorlik jinoyatlari haqidagi qonunlarni tahlil qilish, jinoyatlarning nazariy jihatdan o'rganib chiqish va sud amaliyoti xulosalarining umumlashtirish natijalari hisoblanadi. Lekin mansabdorlik jinoyatlariga berilgan bu ta'rifni aniqlashtirish va qo'shimchalar kiritish mumkinligini inkor etmaydi [9].

Shu bilan birga, fikrimizcha, ichki ishlar organlari tizimidagi mansabdorlik jinoyatlari deganda, mansabdor shaxs o'zining xizmat vakolatlari yoki xizmat vazifasidan foydalanib, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga jiddiy zarar yetkazadigan qilmishlar tushuniladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, korrupsiya bilan bog'liq mansabdorlik jinoyati sodir etgan xodimlarni quyidagi asosiy toifalariga ajratish mumkin:

Faol korrupsioner – bu tipdagi shaxs salbiy yo'nalishga ega bo'lib, u huquqiy nigilizm va barqaror jamiyatga zid qarashlar bilan ajralib turadi. Bunday shaxs uchun poraxo'rlikka ichki intilish xosdir. U poraxo'rlikka olib keladigan sun'iy vaziyatlarni yaratishda faol ishtirok etadi.

Poraxo'rlikning asosiy sababi, birinchi navbatda, boylik orttirish, manfaatparastlik hisoblanadi, biroq ayrim hollarda bu jinoyat boshqalar ustidan o'z ustunligini, kuch-qudrati va ahamiyatini ko'rsa-

tish istagidan kelib chiqishi ham mumkin. Odatda, bunday toifadagi shaxslar boshidanoq poraxo'rlik bilan shug'ullanish niyatida tegishli lavozimlarni egallashga intiladilar.

Odatiy korrupsioner – bu tip beqaror axloqiy-psixologik qarashlarga ega bo'lib, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning past darajasi bilan tavsiflanadi. Biroq, birinchi tipdan farqli o'laroq, u sun'iy ravishda poraxo'rlikni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarni yaratmaydi, balki bu ishni mazkur muassasa yoki jamoada o'rnatib qolgan odat va xulq-atvor "qoidalari" tufayli amalga oshiradi. Jinoyatni sodir etishning asosiy sababi g'arazgo'ylikdir.

Konformist tip – bu tipdagilarning ham axloqiy-psixologik qarashlari beqaror, biroq odatiy tipdan farqli o'laroq, korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etishning asosiy sabablari qo'rqoqlik va konformistik motivlardir. Bu motivlar hamkasblar bilan munosabatlarni buzishni istamaslik, oqimga qarshi suzmaslik, ularning tanqididan qo'rqish va shu kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

O'zgaruvchan poraxo'r (beqaror tip) – jamiyatga qarshi qarashlarga ega emas, biroq shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari beqaror, ijtimoiy me'yorlarga munosabati asosan yengil-yelpi bo'lib, ma'lum sharoitlar yuzaga kelganda poraxo'rlik harakatini sodir etishga olib kelishi mumkin. Jinoyatlarni sodir etishda g'arazli sabablar ustunlik qiladi.

Mavzu yuzasidan "*Fuqarolarning o'zi pora berishni mansabdor shaxslarga taklif etishiga nima sabab bo'lyapti deb o'ylaysiz*", degan savol bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 48,8% ishini tezroq bitirishga

bo'lgan ehtiyoj, 31,9% tanish-bilish, qarindosh-urug'chilik munosabatlari, 18,2% muammoni hal etishga vakolatli shaxsning bosimi yoki hal etishga sun'iy to'sqinlik yaratishi, 15,3% o'rtada "ishonchli" shaxsning kafil bo'lishi deb belgilaganlar.

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etgan ichki ishlar organlari xodimining shaxsi murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, u o'z ichiga individual, ijtimoiy-demografik, biofizilogik, psixologik va ma'naviy xususiyatlarni qamrab oladi. Jinoyatchi shaxsini umumnazariy jihatdan o'rganish huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun g'ayriqonuniy xatti-harakatlarga moyil shaxslarni aniqlash va ularni jinoiy faoliyatdan tiyib turishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatchi shaxsining ruhiy-ma'naviy xususiyatlari, xususan, ma'naviy tubanlashuvi va ijtimoiy xavfli qarashlari uning jinoyatga moyilligini belgilaydi. Ushbu sohada, ayniqsa, salbiy odatlar yoki ichkilikbozlik kabi intizomiy muammolar korrupsiyaviy xatti-harakatlarning sabablari sifatida ko'rsatilgan.

Bizning fikrimizcha, jinoyatchi shaxsining xulq-atvori va ijtimoiy mavqeyini chuqur o'rganish korrupsiyaga qarshi kurashda profilaktik choratadbirlarni samarali tashkil etishga ko'maklashadi. Bunda xodimlarning yoshi, ma'lumoti, ish staji, ma'naviy-axloqiy holati kabi omillarni hisobga olish zarur. Bundan tashqari, jinoyatchining shaxsini o'rganish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bunday xatti-harakatlarning oldini olish imkoniyatini beradi, balki korrupsiyaga qarshi samarali kurash strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasi. – T., 2023.
2. Абдурасулова Қ.Р. Криминология: Дарслик. – Тошкент: ТДЮИ, 2008. – Б. 63
3. Бурлаков В.Н. Криминогенная личность и индивидуальное предупреждение преступлений: Дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 1998. – С.102
4. Убайдуллаев Ж. Жинойтчи шахсинг тузилиши. 2024. <https://nor.uz/?p=18107>
5. Ниёзова С. Жинойтчи шахс. Xushnudbek.uz. 2024 <http://old.xushnudbek.uz/zhinoyatchi-shahsi/>
6. Блувштейн Ю.Д.. Теоретические вопросы статистического изучения личности преступника: по материалам уголовных дел о грабежах и разбойных нападениях: Дис. ... кан. юрид. наук. – М., 1967. https://new-disser.ru/product_info.php?products_id=1320535
7. O'razaliyev M.Q. Jinoyatchilik bilan aloqador bo'lgan ijtimoiy salbiy hodisalarning sabablari va ularning oldini olish: Monografiya. – T., 2023. – B.105.
8. Zokirova U. Jinoyatning subyektiv tomoni. – T.: TDYUU, 2013. – B. 34.
9. Axrorov B.J. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik. – T., 2005. <https://staff.tiame.uz/storage/users/416/books/.nRnhIrcsR.pdf>